Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(IMPACT FACTOR)9.573/2025 ISSN 2181-1881

# MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son /2026

## TAHRIR HAY'ATI

**Muzaffar KOMILOV** – tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR** – O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

**Bahrom ABDUHALIMOV** – tarix fanlari doktori, professor

**Davronbek MAXSUDOV** – tarix fanlari doktori, professor

**Ahadjon HASANOV** – tarix fanlari doktori, professor

**Zohidjon ISLOMOV** – filologiya fanlari doktori, professor

**Shovosil ZIYODOV** – tarix fanlari doktori, professor

**Uyg'un G'AFUROV** – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Jamoliddin KARIMOV** – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Ibrohim USMONOV** – tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Ahmad Sa'd DAMANHURIY** – islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Mahmud Erol QILICH** – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

**Nazir Muhammad AYYAD** – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Rejep TUZJU** – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

**Muhammad Rashid AKPINAR** – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Ashirbek MUMINOV** – tarix fanlari doktori, professor

**Kamaluddin Nurdin MARJUNI** – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

**Jasur NADJIMITDINOV** – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent



*O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil 4-noyabrdagi 03-07/7225-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.*



**MUASSIS:**
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

Bosh muharrir:
**Komiljon Shermuxamedov**
*tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

Bosh muharrir o'rinbosari:
**Shahzod Islamov**
*tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Sahifalovchi:
**Zarifjon Arslonov**

Dizayner:
**Zarifjon G'ulomov**

«**Moturidiylik**» jurnali **O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi**ning 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro'yxatga olingan.



**Tahririyat manzili:**
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy.
**E-mail:** info@maturidijournal.org
**Web-sahifa:** maturidijournal.org
**Telefon:** (+99855) 515-98-98,



ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

# MUNDARIJA

## ISLOMSHUNOSLIK

**Ikhtiyor ABDURAKHMONOV**
Allohning kalom sifati haqidagi aqidaviy qarashlar va ularning talqini ..... 5

**Jobir ELOV**
Imom Buxoriy ta’limotidagi axloqiy tamoyillarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni ..... 9

**Yahyobek HAYITALIYEV**
Radikal g‘oyalarning yoshlar ongiga kirib borish yo‘llari («soxta salafiylik» misolida) ..... 16

**Abdullatif ALLOQULOV**
Moturidiylikda takvin sifati: ma’nosi va zotiy sifat bilan aloqasi ..... 22

**Qudratulloh SIDIQMETOV**
Ilk takfirchi firqalarning shakllanishi va ularning xatarlari ..... 27

**Botirkhon RUZIYEV**
Imom Abu Mansur Moturidiyning ilmiy faoliyati tahlili ..... 32

**Abdulaziz YAKHSHILIKOV**
Aqoid ilmi shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ..... 40

**Oishakhon SALIMOVA**
Imom Moturidiy va uning izdoshlari ilmiy merosining islom ilmlari rivojidagi o‘rni ..... 47

**Aydos YAKUPOV**
Imom Abu Mansur Moturidiyning kalom ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi ..... 50

**Nasrullo TOKHTAYEV**
Moturidiylik ta’limotining o‘ziga xos jihatlari ..... 55

## ISLOM HUQUQI

**Muhammad Khodiy AKHMEDOV**
Mazhablarning ahamiyati: dalillar va ilmiy asoslar ..... 59

## DINSHUNOSLIK

**Bobomurod RUSTAMOV**
O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonuni hamda diniy sohadagi davlat siyosati ..... 63

**Abdullaziz ABDUVAKHIDOV**
Zamonaviy ta’limda ma’rifatning o‘rni ..... 67


ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

## ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIK

**Tokhir KHATAMOV**
Xorijiy fondlardagi tasavvuf ta’limotiga oid manbalarning yurtimizda tuzilgan reyestrlarda tasnif etilishi ..... 72

**Ahmadkhon RASHIDOV**
O‘rta asrlar islom olamida qiroat ilmining rivojlanishi va uning mashhur namoyandalari ..... 81

**Samariddin AKHMEDOV**
Umar Jandiyning «al-Iqlid» asari metodologiyasi ..... 89

**Nozima IBRAGIMOVA**
Abbosiylar davri elchilik munosabatlarining konseptual qoidalari ..... 95

**Khalilulloh SAIDAKBAROV**
Ibn Kasirning «al-Bidoya va-n-nihoya» asarida foydalangan manbalari ..... 102

**Zarifjon GULOMOV**
«Kitob at-tavhid» tanqidiy nashrlarida matniy tafovutlar va tahrir tamoyillari ..... 107


ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-M/16

**Samariddin AKHMEDOV**[a]

[a] *Lecturer*
*Tashkent Islamic Institute named after Imam Bukhari*
*47, 18th Dead-end Street, Zarqaynar, Tashkent, 100002, Uzbekistan*
*E-mail: samariddin2023@gmail.com*

## UMAR JANDIYNING «AL-IQLID» ASARI METODOLOGIYASI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada arab tili ilmlari rivojiga muhim hissa qo‘shgan o‘z davrining yirik olimlaridan biri Ahmad ibn Mahmud ibn Umar Jandiyning ilmiy merosi, xususan, Mahmud Zamaxshariyning «al-Mufassal» asariga yozgan «al-Iqlid» nomli sharhi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda Jandiyning arab tili grammatikasiga oid masalalarni yoritishda qo‘llagan ilmiy-metodik yondashuvi, nazariy qarashlari va dalillash usullari o‘rganiladi. Jumladan, olimning grammatik qoidalarni asoslashda Qur’oni karim oyatlari, Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning hadisi shariflari, arab tilida keng qo‘llanilgan zarbulmasallar hamda mumtoz arab she’riyatidan keltirilgan dalillardan foydalanish xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, mazkur dalillarning grammatik qoidalarni izohlash, til hodisalarini asoslash va nazariy xulosalarni mustahkamlashdagi o‘rni ochib beriladi. Maqolada Ahmad Jandiyning hayoti, ilmiy faoliyati, ustozlari va shogirdlari haqidagi ma’lumotlar ishonchli tarixiy va ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Bundan tashqari, olimning arab tili grammatikasi rivojidagi o‘rni, ilmiy merosining ahamiyati hamda «al-Iqlid» sharhining arab tilshunosligi tarixidagi ilmiy qiymatini aniqlashga e’tibor qaratiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *al-Mufassal, al-Iqlid, sharh, tahlil, tilshunos, grammatika, uslublar, qoidalar, she’riy dalillar.*

## THE METHODOLOGY OF UMAR JANDI’S WORK «AL-IQLID»

***Abstract.*** *This article provides a scholarly analysis of the intellectual legacy of Ahmad ibn Mahmud ibn Umar al-Jandi, one of the prominent scholars who made a significant contribution to the development of Arabic linguistic sciences, with particular emphasis on his commentary entitled al-Iqlid on Mahmud al-Zamakhshari’s work al-Mufassal. The study examines al-Jandi’s scholarly and methodological approach to Arabic grammar, his theoretical views, and the methods he employed to substantiate grammatical rules. Particular attention is paid to his use of verses from the Holy Qur’an, hadiths of the Prophet Muhammad (peace and blessings be upon him), widely used Arabic proverbs, and poetic evidence from classical Arabic poetry. The article also explores the role of these sources in explaining grammatical rules, substantiating linguistic phenomena, and reinforcing theoretical conclusions. Furthermore, information concerning Ahmad al-Jandi’s life, scholarly activities, teachers, and students is examined on the basis of reliable historical and academic sources. The study also highlights his contribution to the development of Arabic grammar, the significance of his scholarly legacy, and the academic value of al-Iqlid in the history of Arabic linguistics.* **Keywords:** *al-Mufassal, al-Iqlid, commentary (sharh), analysis, linguist, grammar, linguistic methods, grammatical rules, poetic evidence.*


ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Mahmud Zamaxshariyning «al-Mufassal» asarida qo‘llagan uslubi uning nahvshunoslar va tadqiqotchilar orasida mashhur bo‘lishiga asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli mazkur asar o‘z davridayoq turli xalqlar, hatto arablar orasida ham katta e’tibor qozongan. U arab tilini o‘rganishda asosiy qo‘llanmalardan biri sifatida keng tarqalgan bo‘lib, o‘z davridan to hozirgi kunga qadar ilmiy muomalada bo‘lib kelmoqda. Asarga ellikdan ortiq sharh yozilgani aniqlangan. Mazkur asarga sharh yozgan olimlardan biri Ahmad ibn Mahmud ibn Umar Jandiy Hanafiydir. Ushbu olim haqida biografik manbalarda kam sonli ma’lumotlar uchraydi. Jandiy Sayhun bo‘yidagi Jand shahrida tavallud topgan. Biroq uning tug‘ilgan sanasi haqida tarixiy manbalarda aniq ma’lumot uchramaydi. Vafot etgan sanasi esa milodiy 1300-yil ekani qayd etilgan[1].

Biografik manbalarda Jandiy ta’lim olgan ustozlar hamda uning qo‘lida tahsil olgan shogirdlar haqida ham ma’lumotlar keltirilmagan.

Olimning ilmiy merosidan beshta asari bizgacha yetib kelgan bo‘lib, ular haqida yetarlicha tasavvurga egamiz. Mazkur asarlar quyidagilardan iborat:

«Al-Iqlid» – arab tili grammatikasiga oid asar bo‘lib[2], Mutarriziyning (1143–1213) arab tili grammatikasiga bag‘ishlangan «al-Misbah» asariga yozilgan sharhdir[3];

«Sharh al-Kofiya fi-n-nahv» – arab tili grammatikasiga oid mashhur «al-Kofiya fi-n-nahv» asarining sharhi;

«Uqud al-javohir fi ilm at-tasrif» – sarf ilmiga oid asar[4];

«Al-Ujala fi tafsir al-Jalolayn» – mashhur «Tafsir al-Jalolayn» asariga bag‘ishlangan sharh;

«Al-Iqlid fi sun’at al-i’rob li sharh al-Mufassal» – Mahmud Zamaxshariyning mashhur «al-Mufassal» asariga yozilgan muhim sharhlardan biri hisoblanadi. Xayriddin Zirikliy o‘zining «al-A’lom» asarida Jandiy «al-Iqlid» asarini Buxoroda ta’lif qilganini qayd etadi[5]. Shuningdek, asarning Buxoroda yozilganini tasdiqlovchi dalillardan yana biri uning so‘nggi bobida keltirilgan quyidagi so‘zlardir: «Men buni Buxoroda yozdim. Zamonlar o‘tgan sari, o‘zining sevimli yurti uchun mehnat qilgan kishining ishi sifatida Alloh uni har xil ofatlardan himoya qilsin»[6].

Ushbu sharh muallifi Jandiy «al-Mufassal» asarining mazmunini nafaqat izohlab bergan, balki uning murakkab va noaniq o‘rinlarini ilmiy asosda tahlil qilib, atroflicha yoritgan hamda ularni soddaroq va tushunarliroq izohlar bilan boyitgan. Shuningdek, olim grammatik qoidalarni chuqur tahlil qilish bilan birga, ularning qo‘llanilish sabablari va lingvistik mexanizmlarini ham ochib bergan. Bu esa uning ilmiy yondashuvining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Asarda Qur’oni karim oyatlari, hadisi shariflar, mashhur maqollar va she’riy asarlardan keltirilgan dalillar grammatik qoidalarni nazariy hamda amaliy jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Muallif ilmiy muloqot usulidan keng foydalanib, o‘quvchini savol-javob tarzida tahlil jarayoniga jalb qiladi. Mazkur uslub ma’lumotlarni tizimli o‘zlashtirish va mantiqiy xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur sharh o‘zining ilmiy ahamiyati tufayli bir qator tilshunos olimlar tomonidan asosiy manba sifatida foydalanilgan. Jumladan, Bag‘dodiy «Xizonat al-adab», Hoji Bobo Tusiy «Mia komila fi sharh Mia omila», Tahomiy esa «al-Maqolid» asarlarida undan manba sifatida foydalangan.

Olim o‘z asarida Qur’oni karim oyatlari, Rasulullоh (alayhissalom)ning hadisi shariflari, arab tilida keng tarqalgan zarbulmasallar hamda she’riy dalillardan o‘ziga xos ilmiy-metodik yondashuv asosida foydalangan.

«Al-Iqlid» asari grammatikaga oid boshqa asarlardan Qur’oni karim oyatlaridan juda ko‘p misollar keltirilgani bilan ajralib turadi. Asarda to‘rt yuzdan ortiq oyati karima keltirilgan bo‘lib, ular tahlilida oyatlarning uslubiy va balog‘atga oid jihatlari ham atroflicha yoritilgan.

Mahmud Zamaxshariy «al-Mufassal» asarida «لعل» («shoyad») kalimasi amalga oshishi mumkin bo‘lgan ishga umid bog‘lash ma’nosini anglatishi, bu esa bandalarga xos holat ekanini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, mazkur kalima yuzaga chiqishi aniq bo‘lgan ish bilan tahdid qilish ma’nosida ham qo‘llanilishini qayd etib, bunga Shuro surasining 17-oyatidagi «لعل الساعة قريب» («Ehtimol, qiyomat

[1] Ismoil Posho Bag‘dodiy. Hadiyat al-orifin asmo al-muallifin va asar al-musannifin. – Bayrut: Dor al-ihyo at-turos al-arabiy, 1951. – B. 102.

[2] Taqiyuddin ibn Abdulqodir Tamimiy. At-Tabaqot as-saniya fi tarojim al-hanafiya. – Ar-Riyad: Dor ar-Rifoiy, 1983. – B. 103.

[3] Ismoil Posho Bag‘dodiy. Hadiyat al-orifin asmo al-muallifin va asar al-musannifin. – Bayrut: Dor al-ihyo at-turos al-arabiy, 1951. – B. 102.

[4] Hoji Xalifa. Kashf az-Zunun. – J. 1. – Bayrut: Dor al-ihyo at-turos al-arabiy, 1999. – 1155 b.

[5] Xayriddin Zirikliy. Al-A’lom. – Bayrut. Dor al-ulum li-l-malayin, 2002. – B. 254.

[6] Tojiddin Ahmad ibn Mahmud bin Umar Jandiy. Al-Iqlid sharh al-Mufassal. – Riyoz. Maktaba Malik Fahd, 2002. – J. 2. – B. 2188.


ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

yaqindir») hamda Oli Imron surasining 130-oyatidagi «تفلحون لعلكم» («Shoyad, najot topsangiz») oyatlarini misol sifatida keltiradi. Umar Jandiy esa «لعل» kalimasi ayrim o‘rinlarda umidsizlik ma’nosini anglatuvchi «ليت» («qani edi») kalimasi mazmunida ham qo‘llanilishini qo‘shimcha qiladi. Bunga u «قال فرعون يا هامان ابن لي صرحا لعلي أبلغ الأسباب» («Fir’avn dedi: «Ey, Homon! Menga bir baland minora qurgin, shoyadki, men yo‘llarga yetishsam»[7]) mazmunidagi oyatni dalil sifatida keltiradi. Uning ta’kidlashicha, bu o‘rinda «لعل» kalimasi «ليت» ma’nosida qo‘llangan. Chunki «ليت» amalga oshishi mumkin bo‘lmagan ishlar uchun ishlatiladi. Zero, Fi’avn osmonlarga yetishish mumkin, deb da’vo qilgan va shu umid bilan «لعل» kalimasini qo‘llagan bo‘lsa-da, bu ish haqiqatda imkonsiz bo‘lgani uchun mazkur kalimani ushbu o‘rinda «ليت» ma’nosida qabul qilish mumkin. Masalan, «لعل الشباب يعود» («Shoyad, yoshlik qaytib kelsa») emas, balki «ليت الشباب يعود» («Qani edi, yoshlik qaytib kelsa») shakli qo‘llaniladi[8].

Shuningdek, muallif Umar Jandiy dalil sifatida keltirilgan Qur’oni karim oyatlarini tahlil qilishda ularning ehtimoliy sintaktik va semantik jihatlarini ham atroflicha yoritgan. Masalan, Mahmud Zamaxshariy «holni ifodalovchi hol» va uning omilini (ta’sir etuvchisini) bayon qilish asnosida holning ma’naviy omiliga Alloh taoloning «وَهٰذَا بَعْلِي شَيْخًا» («Bu erim qari bo‘la turib»[9]) mazmunidagi so‘zini dalil sifatida keltiradi. «Al-Mufassal» muallifining qarashlarini bayon qilgach, mazkur oyatdagi «شيخ» so‘zining besh xil jihatdan bosh kelishikda ham kelishi mumkinligiga to‘xtalib o‘tadi:

«شيخ» lafzi izohlovchi bo‘lganligiga ko‘ra;

«بعلي» kalimasi «هذا»ning sifat bo‘lmagan izohlovchisi, «شيخ» esa kesim bo‘lganligiga ko‘ra;

«شيخ» va «بعلي» kalimalarining har ikkalasi ham «هذا»ning kesimi bo‘lganligiga ko‘ra;

«شيخ» kesim, «بعلي» esa «هذا»ning sifat bo‘lmagan izohlovchisi (عطف بيان) bo‘lganligiga ko‘ra;

tushib qolgan eganing kesimi bo‘lganligiga ko‘ra[10].

«Al-Mufassal»ga sharh yozgan olimlardan biri Qosim Xorazmiy o‘zining «at-Taxmir» asarida mazkur qoidani sodda tarzda izohlaydi: «Holning omili ikki xil bo‘ladi. Birinchisi fe’l yoki fe’lga o‘xshash mushtaq ismlar. Masalan, «جاءني زيد راكبا» («Zayd mening yonimga ot minib keldi»), «مررت برجل عفيف شابا» («Yosh holatdagi iffatli kishining yonidan o‘tdim»). Ikkinchisi esa fe’l ma’nosi bo‘lib, u ismi ishora («منطلقا هذا عمرو») yoki istifhom («مالك واقفا» – «Senga nima bo‘ldi, turibsan?») bo‘lishi mumkin».

Olim Qur’oni karim oyatlarini dalil sifatida keltirgach, ular yuzasidan nahv olimlarining qarashlari va qiroat yo‘nalishlarini tahlil qilgan hamda oyatning grammatik jihatiga muvofiq kelmaydigan fikrlarga ilmiy asoslar bilan javob bergan. Bunday bayon uslubini boshqa tilshunoslar asarlarida uchratish qiyin. Jumladan, Shuaro surasining 197-oyatidagi «أَوَلَمْ يَكُنْ لَهُمْ آيَةً أَنْ يَعْلَمَهُ عُلَمَاءُ إِسْرَائِيلَ بَنِي» («Uni Bani Isroil ulamolari bilishlari ular uchun dalil emasmi?!»[11]) oyatidagi «آية» kalimasini Ibn Omirdan boshqa qiroat imomlari nasb holatida qiroat qilganlar. Ibn Omir qiroatida esa «آية» so‘zi «لم يكن» fe’lining xabari bo‘lib, raf’ holatida, «أن يعلمه علماء بني إسرائيل» jumlasining o‘zi esa mazkur fe’lning ismi hisoblanadi. Ushbu qiroatga tayanib, nahv olimi Abu Ishoq (855–923) «آية» lafzi «لم يكن» fe’lining ismi, «أن يعلمه علماء بني إسرائيل» jumlasi esa uning xabari, degan fikrni bildirgan. Jandiy esa bu tahlilni haqiqatdan yiroq deb baholaydi va quyidagicha izohlaydi: «Garchi bu fikrni nahv olimi Abu Ishoq bildirgan bo‘lsa-da, u haqiqatdan yiroqdir. Olim bu o‘rinda xato qilgan. Oyatning yoyiq ma’nosi «أولم تكن القصة أن يعلمه علماء بني إسرائيل آية» mazmunidadir. Bu o‘rinda «لم يكن» fe’lining ismi undagi «هي» olmoshi bo‘lib, u «qissa» ma’nosiga qaytadi. Agar «آية» kalimasi «يكن لم» fe’lining ismi deb qabul qilinsa, «أن يعلمه علماء بني إسرائيل» jumlasining asli «علماء بني علم إسرائيل» ko‘rinishida bo‘lib, u ma’rifa holatida, «آية» esa nakira holatida bo‘ladi. Natijada ma’rifa ismdan nakira ism bilan xabar berishga to‘g‘ri keladi. Bunday grammatik tahlil nahv olimlari ittifoqiga ko‘ra xatodir»[12].

Yuqoridagi tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, olim matnni sharhlash jarayonida o‘zidan oldingi shorihlar asarlarida uchramaydigan chuqur ilmiy mulohazalarni ilgari surgan. Dalil sifatida keltirilgan oyatlarning grammatik jihatdan bir necha ehtimoliy tahlillarini hamda qiroat yo‘nalishlarini atroflicha yoritishi uning arab tilini chuqur egallaganini ko‘rsatadi.

[7] Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolari tarjima va tafsiri. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 471.

[8] Tojiddin Ahmad ibn Mahmud bin Umar Jandiy. Al-Iqlid sharh al-Mufassal. – Riyoz. Maktaba Malik Fahd, 2002. – J. 4. – B. 1751.

[9] Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolari tarjima va tafsiri. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 230.

[10] Tojiddin Ahmad ibn Mahmud ibn Umar Jandiy. Al-Iqlid sharh al-Mufassal. – J. 1. – Riyoz. Maktaba Malik Fahd, 2002. – B. 521-522.

[11] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – J. 5. – Toshkent: «Hilol-Nashr», 2021. – B. 278.

[12] Tojiddin Ahmad ibn Mahmud ibn Umar Jandiy. Al-Iqlid sharh al-Mufassal. – J. 2. – Riyoz: Maktaba Malik Fahd, 2002. – B. 832.


ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Aksariyat nahv olimlari fikriga ko‘ra, til qoidalarini asoslashda Rasulullоh (alayhissalom) dan rivoyat qilingan hadisi shariflar dalil sifatida keltirilmaydi. Ular buni hadislar Rasulullоh (alayhissalom)ning aynan lafzlari bilan emas, balki ma’nosi asosida rivoyat qilingani bilan izohlaydilar. Jandiy esa mazkur qarashga xilof ravishda hadisi shariflardan 19 o‘rinda, boshqa manbalardan esa 13 o‘rinda dalil sifatida foydalangan. Jumladan, olim o‘z asarining «ibdol» (bir lafz o‘rniga boshqa lafzni qo‘llash) bobida «م» harfining «أل» aniqlik artikli ma’nosida kelishiga dalil sifatida «ليس من امبر امصيام في امسفر» («Safarda ro‘za tutish yaxshilik emas») hadisini keltiradi. Undagi «امبر», «امصيام» va «امسفر» so‘zlaridagi «م» harfi «أل» aniqlik artikli ma’nosida kelganini ta’kidlaydi. Shuningdek, «بيد» so‘zining istisno bobidagi «غير» ma’nosida qo‘llanilishiga dalil sifatida «العرب بيد أني من قريش واسترضعت في بني أنا أفصح سعد بن بكر» («Men arablarning eng fasihiman, biroq Quraysh qabilasidanman va Banu Sa’d ibn Bakr qabilasida emizilganman») hadisini keltirib, undagi «بيد» so‘zi «غير» ma’nosida ishlatilganini ilmiy asosda dalillaydi[13].

Qolaversa, muallif o‘z asarida yuqorida qayd etilgan dalillardan tashqari, 80 ga yaqin zarbul-masallar va xalq orasida keng tarqalgan mashhur iboralardan ham dalil sifatida foydalangan. Jumladan, muqoraba fe’llarining xabari mufrad holda kelishini asoslash uchun «عسى الغوير أبؤسا» zarbulmasalini keltiradi. Ushbu zarbulmasal «ربما جاء الشر من معدن الخير» («Balki yomonlik yaxshilik manbaidan kelgandir») ma’nosini anglatib, tuhmat yoki xavf ehtimoli mavjud bo‘lgan holatlarda qo‘llaniladi[14].

Mutaqaddim nahv olimlari shoirlarni to‘rt tabaqaga ajratganlar. Ular quyidagilardir:

«الشعراء الجاهليون» – johiliya davrida, ya’ni islomdan avval yashab ijod qilgan Imru’ul Qays, A’sho kabi shoirlar;

«الشعراء المخضرمون» – johiliya davri va islomning dastlabki yillarida yashab ijod qilgan Labid, Hasson ibn Sobit kabi shoirlar;

«الشعراء الإسلاميون» – islom davrining ilk bosqichida ijod qilgan Jarir, Farazdaq kabi shoirlar;

«الشعراء المولدون» – yuqorida zikr etilgan tabaqalardan keyingi davrda yashab ijod qilgan shoirlar.

Ilk nahv olimlari mazkur to‘rt tabaqaning dastlabki uchtasiga mansub shoirlarning she’rlaridan grammatik dalil sifatida foydalanganlar. Biroq to‘rtinchi tabaqaga mansub shoirlarning she’rlarini dalil sifatida qabul qilmaganlar. Buning sababi sifatida ular ushbu shoirlarning ajamlar bilan aralashgani, uzoq muddat sahro muhitidan tashqarida yashagani hamda ularning tiliga ajam tilining ta’siri kuchayib, lisoniy xatolar ko‘payganini keltirganlar. Shu bois nahv olimlari mazkur tabaqa shoirlarining she’rlariga nisbatan ishonch bildirmaganlar. Jandiy esa bu masalada ilk nahv olimlari qarashidan farqli yo‘l tutgan. U hech qanday istisnosiz to‘rtinchi tabaqaga mansub Hamadoniy, Mutanabbiy, Ibn Rumiy, Abu Navvos kabi shoirlarning she’rlaridan ham ko‘plab o‘rinlarda grammatik dalil sifatida foydalangan.

«Al-Iqlid» asarida keltirilgan she’rlarni ikki toifaga ajratish mumkin. Birinchi toifaga Mahmud Zamaxshariy «al-Mufassal» matnida keltirgan she’rlar, ikkinchi toifaga esa Jandiyning matnni sharhlash jarayonida qo‘shimcha ravishda keltirgan she’rlari kiradi.

Olim mazkur she’rlardan dalil sifatida foydalanishda ularning lug‘aviy birliklarini sharh-lash, noaniq nuqtalarini izohlash, dalil sifatida keltirilish sababini bayon qilish, baytlarning voqeasi hamda grammatik tahlilini yoritishga alohida e’tibor qaratgan.

Shorih ixchamlikni saqlash maqsadida «al-Mufassal» matnida keltirilgan she’rlarning baytlarini to‘liq keltirmasdan, «birinchi baytga kelsak», «bu baytdagi dalilga to‘xtalsak», «shoirning so‘ziga nazar tashlasak», «Hassonning so‘ziga kelsak» kabi iboralar bilan cheklangan. Ayrim o‘rinlarda esa Imru’ul Qaysning «sening misling»[15] uslubidagi she’rlaridan faqat bir yoki ikki kalimani keltirish bilan kifoyalangan.

Shorihning diqqatga sazovor uslublaridan yana biri shundaki, agar «al-Mufassal» muallifi baytning birinchi misrasini dalil sifatida keltirgan bo‘lsa, u ikkinchi misrani ham zikr qiladi. Agar muallif baytning ikkinchi misrasini keltirgan bo‘lsa, Jandiy birinchi misrani ham ilova qilib, baytni to‘liq shaklda taqdim etadi. Jumladan, «al-Mufassal» muallifi Hassonga mansub she’rning «يكون مزاجها عسل و ماء» misrasini dalil sifatida keltirgan bo‘lsa, Jandiy ushbu she’rning avvalgi baytining birinchi misrasini hamda keyingi baytning har ikki misrasini keltirib, she’rni to‘liq holda bayon qiladi.

[13] Tojiddin Ahmad ibn Mahmud ibn Umar Jandiy. Al-Iqlid sharh al-Mufassal. – J. 1. – Riyoz. Maktaba Malik Fahd, 2002. – B. 164.
[14] Tojiddin Ahmad ibn Mahmud ibn Umar Jandiy. Al-Iqlid sharh al-Mufassal. – J. 1. – Riyoz. Maktaba Malik Fahd, 2002. – B. 1587.
[15] Tojiddin Ahmad ibn Mahmud ibn Umar Jandiy. Al-Iqlid sharh al-Mufassal. – J. 1. – Riyoz. Maktaba Malik Fahd, 2002. – B. 532.


ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

يكون مزاجها عسل و ماء
كأن سلافة من بيت رأس
من التفاح هصره الجناء
على أنيابها، أو طعم غض

*Tarjimasi: «Ra’s»dan keltirilgan, unga suv aralashtirilgan asalga yoki yangi uzilgan sersuv olmaning ta’miga o‘xshash nabiz go‘yoki nabizlarning eng sarasidir.*

Jandiy mazkur baytlarning so‘z birikmalari, umumiy grammatik jihati va ma’nosini bayon qilgach, ularning grammatik tahlili bilan bog‘liq yana to‘rtta ehtimoliy tarkibni ham keltiradi. Ushbu ehtimoliy tahlillar quyidagilardan iborat:

Birinchi ehtimolga ko‘ra, «عسل» kalimasi «يكون» fe’lining ismi, «مزاجها» esa mansub (tushum kelishigida) bo‘lib, «يكون» fe’lining xabari hisoblanishi mumkin.

Ikkinchi ehtimolga javob tariqasida Jandiy quyidagilarni keltiradi: garchi «عسل و ماء» lafzlari nakira, «مزاجها» esa ma’rifa holatida bo‘lsa-da, «يكون» fe’lining ismi nakira, xabari esa ma’rifa holatida kelishi mumkin. Buning sababi shundaki, «عسل» va «ماء» lafzlari nakira bo‘lsa ham, ismi jins hisoblangani uchun ma’rifaga yaqinlashadi va shu bois «يكون» fe’lining ismi bo‘lishga salohiyatlidir. Bunga «أرجل في الدار أم امرأة» jumlasini misol sifatida keltiradi. Undagi «رجل» va «امرأة» kalimalari ismi jins bo‘lgani sababli ma’rifaga yaqin ma’noda qo‘llangan. Shuningdek, «مزاجها» lafzidagi zamir nakira holatdagi «سلافة» so‘ziga qaytgani uchun mazkur ism ham nakira deb baholanadi.

Ikkinchi ehtimol Abu Ali Jurmiyga tegishli bo‘lib, Jandiy uni quyidagicha naql qiladi: «مزاجها» hol bo‘lib, uni nasb qiluvchi omil tarkibdan tushirib qoldirilgan «يكون» fe’lining xabaridir.

Uchinchi ehtimolga ko‘ra, «مزاجها» raf’ holatida bo‘lib, «يكون» fe’lining ismi, «عسل» lafzi esa nasb holatida mazkur fe’lning xabari hisoblanadi. «ماء» lafzi esa raf’ holatida bo‘lib, lafzdan tushirib qoldirilgan «يخالطه» («unga suv aralashgan») fe’lining foili (egasi) vazifasini bajaradi.

To‘rtinchi ehtimolga ko‘ra, «مزاجها» raf’ holatida ega, «عسل و ماء» lafzlari esa kesim bo‘lib, ega va kesim birgalikda ismiy jumla hosil qiladi. Mazkur ismiy jumla tarkibda zamiri tushirib qoldirilgan «يكون» fe’lining xabari hisoblanadi.

«Al-Iqlid» asarida keltirilgan she’rlarning ikkinchi toifasi Jandiy tomonidan «al-Mufassal» matnini sharhlash jarayonida o‘z fikrini asoslash maqsadida keltirilgan she’rlardan iborat. Shorih mazkur she’rlarni keltirishda ko‘p hollarda ularning muallifini zikr etmagan bo‘lsa-da, manbasiga ishora qilgan va ularning ma’nolarini ham izohlab bergan. Jumladan, mavsullar (nisbiy olmoshlar) mavzusida «اللتيا» lafzini «التي» olmoshining kichraytirish shakli ekanini, bunday shaklga o‘tkazishdan maqsad ulug‘lash ma’nosini ifodalash ekanini ta’kidlaydi. Uning qayd etishicha, arab tili uslubiyatida ayrim hollarda ismlarni mazkur shaklga o‘tkazish orqali muayyan narsaning ulug‘ligi va ahamiyati ifodalanadi. Bu fikrini asoslash uchun quyidagi she’rni keltiradi:

كل أناس سوف تدخل بينهم
دويهية تصفر منها الأنامل

*Tarjimasi: Insonlar orasiga barmoqlarni sarg‘aytiruvchi og‘ir kulfat kirib keladi.*

Mazkur she’rdagi «دويهية» kalimasi «داهية» so‘zining kichraytirish shakli bo‘lib, shoir u orqali o‘limni nazarda tutgan. Bu yerda kichraytirish shakli hajmni emas, balki ma’noning ulug‘ligi va dahshatini ifodalash vazifasini bajargan.

Umar Jandiy o‘z asarida arab tili qoidalarini bayon qilish jarayonida o‘z qarashlarini asoslash maqsadida Qur’oni karim oyatlari, Rasulullоh (alayhissalom)ning hadisi shariflari, arab tilida keng tarqalgan zarbulmasallar, shuningdek, «الشعراء الجاهليون», «الشعراء المخضرمون» va «الشعراء الإسلاميون» tabaqalariga mansub shoirlarning she’rlaridan keng foydalangan. Shu bilan birga, ilk nahv olimlari dalil sifatida qabul qilmagan «الشعراء المولدون» tabaqasiga mansub Hamadoniy, Mutanabbiy, Ibn Rumiy va Abu Navvos kabi shoirlarning she’rlarini ham o‘ziga xos ilmiy-metodik yondashuv asosida grammatik dalil sifatida qo‘llagan.

Bugungi kunda yurtimiz hududida qadimdan shakllangan turli ilmiy maktablarning tarixiy ildizlarini o‘rganish hamda ularga mansub asarlarni ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, Umar Jandiyning «al-Iqlid» asarini har tomonlama o‘rganish, uning zamonaviy ilmiy nashrlarini tayyorlash va tarjimalarini amalga oshirish soha olimlari oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

## MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolari tarjima va tafsiri. – Toshkent: Sharq, 2004.
2. Taqiyuddin ibn Abdulqodir Tamimiy. At-Tabaqot as-saniya fi tarojim al-hanafiya. – Ar-Riyad: Dor ar-Rifoiy, 1983.
3. Tojiddin Ahmad ibn Mahmud ibn Umar Jandiy. Al-Iqlid sharh al-Mufassal. – Riyoz. Maktaba Malik Fahd, 2002.
4. Xayriddin Zirikliy. Al-A’lom. –Bayrut. Dor al-ulum li-l-malayin, 2002.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. –



ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Toshkent: «Hilol-Nashr», 2021.
6. Hoji Xalifa. Kashf az-Zunun. – J. 1. – Bayrut: Dor al-ihyo at-turos al-arabiy, 1999.
7. Ismoil Posho Bag‘dodiy. Hadiyat al-orifin asmo al-muallifin va asar al-musannifin. – Bayrut: Dor al-ihyo at-turos al-arabiy, 1951.
8. Muhyiddin Abi Muhammad Abdulqodir ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Nasrulloh. Al-Javohir al-muziya fi tabaqot al-hanafiya. Dar al-maorif an-nizomiya, 1913.

## REFERENCES

9. Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolari tarjima va tafsiri. – Toshkent: Sharq, 2004.
10. Taqiyuddin ibn Abdulqodir Tamimiy. At-Tabaqot as-saniya fi tarojim al-hanafiya. – Ar-Riyad: Dor ar-Rifoiy, 1983.
11. Tojiddin Ahmad ibn Mahmud ibn Umar Jandiy. Al-Iqlid sharh al-Mufassal. – Riyoz. Maktaba Malik Fahd, 2002.
12. Xayriddin Zirikliy. Al-A’lom. –Bayrut. Dor al-ulum li-l-malayin, 2002.
13. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: «Hilol-Nashr», 2021.
14. Hoji Xalifa. Kashf az-Zunun. – J. 1. – Bayrut: Dor al-ihyo at-turos al-arabiy, 1999.
15. Ismoil Posho Bag‘dodiy. Hadiyat al-orifin asmo al-muallifin va asar al-musannifin. – Bayrut: Dor al-ihyo at-turos al-arabiy, 1951.
16. Muhyiddin Abi Muhammad Abdulqodir ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Nasrulloh. Al-Javohir al-muziya fi tabaqot al-hanafiya. Dar al-maorif an-nizomiya, 1913.


ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI**

**Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.**

**Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.**

# MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

**Maxsus son/2026**

*Bosh muharrir:* **K.Shermuxamedov**
*Muharrir:* **A.Tajiyev**
*Nashr uchun mas’ul:* **Z.Arslonov**
*Chet tillaridagi matnlar muharriri:* **O.Sotvoldiyev**
*Dizayner-sahifalovchi:* **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 12.10.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 $^{1}/_{8}$.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

«Standard Poligraf Service»
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.